

TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA ENGIL SANOAT INSTITUTI

5320300 «Texnologik mashinalar, jixozlar va servis xizmati»



DIPLOM LOYIHASI



Mavzu:

Paxta sanoati texnologiyasi fakulteti 3g-14 guruhi talabasi **Umarov Azizjon**

Diplom loyixasi tarkibiy qismlari maslahatchilari:

1. Kirish: katta o‘qituvchi *Abdug‘afforov X.J*
(Diplom loyixasi tarkibiy qismi, konsultantining F.I.SH., sana va imzo)

2. Konstruktorlik qismi: katta o‘qituvchi *Abdug‘afforov X.J*
(Diplom loyixasi tarkibiy qismi, konsultantining F.I.SH., sana va imzo)

4. Texnologik qismi: katta o‘qituvchi *Abdug‘afforov X.J*
(Diplom loyixasi, konsultantining F.I.SH., sana va imzo)

5. Tarmoq mashinalarini kompyuterli boshqaruvi qismi: *Alimova G*
(Diplom loyixasi tarkibiy qismi, konsultantining F.I.SH., sana va imzo)

6. Mehnat muhofazasi va ekologiya qismi: t.f.n. dots. *Axmatov M.*
(Diplom loyixasi tarkibiy qismi, konsultantining F.I.SH., sana va imzo)

7. Iqtisod qismi: t.f.n., dots. *Isaev R.*
(Diplom loyixasi tarkibiy qismi, konsultantining F.I.SH., sana va imzo)

Ilmiy rahbar: katta o‘qituvchi *Abdug‘afforov X.J*

Kafedra mudiri t.f.n., dots. *Rasulov R X*

Toshkent – 2018 yil

TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI

“Texnologik mashinalar va jihozlar”
kafedrası

“Tasdiqlayman”
Dekan B. Turayev
“ ” 2017y.

DIPLOM LOYIHASIGA TOPSHIRIQ

Talaba *Umarov Azizjon Anvar o‘g‘li*

Ta‘lim yo‘nalishi *5320300 “Texnologik mashinalar va jihozlar”*

Fakultet *“Paxta sanoati texnologiyasi”*

Diplom loyihasi mavzusi *“Lenter kolosnik panjarasini takomillashtirish”*

Topshiriq *“Paxtagin KB” MCHJ tashabusi bilan berilgan*

(korxona ITI, kafedrası)

Rahbar: *texnika fanlar nomzodi, dotsent Safojev Abduxalil Abdurahimovich*
(lavozimi, unvoni, F.I.SH.)

1. Diplom loyihasining qisqacha mazmuni

Diplom loyihasida paxtani dastlabki ishlash jarayonida jinlovchi chigitlardan lint oluvchi linter mashinasini tuzilishi, ishlash tamoili va afzalik –kamchiliklarini taxlil asosida uni kolosnik asosida takomillashtirish, uni yig‘ish ishlarini soddalashtirish maqsadida ishlar bajariladi.

2. Diplom loyihasining tarkibiy qismlari.

2.1. Asosiy qism (texnologik, konstruktorlik, tadqiqot va boshqa)

Asosiy qism konstruktiv qismida linter mashinasini ishlash tamoillari taxlil qilingan holda unga yangi ishchi orgin yani kolosnik panjarasi taklif qilindi.

Kiritilayotgan tavsiyani asoslash uchun tegishli hisob – kitob ishlari kinematik seximasini hisobi va boshqa ishlar bajariladi.

Maslaxatchi t.f.n.d Safojev Abduxalil Abdurahimovich

2.2. Qo‘shimcha qismlar maslahatchilar .

1. Texnologik qism- *Safojev Abduxalil Abdurahimovich*

2. Mehnat muxofazasi va ekologiya

3. Tarmoq mashinalarini kompyuterli boshqaruvi.

4. Iqtisodiy qism –qabul qilingan echimlar, iqtisodiy ko‘rsatkichlar orqali asoslanadi.

2.3. Hisob-tushuntirish matni tarkibi va qisqa mazmuni .

1. Kirish- diplom loyihasi mavzusini asoslash;

2. Konstruktorlik qism-linter mashinasini kalasnik panjarasini takomillashtirish

3. Texnologik qism

4. Mehnat muhofazasi va ekologiya

5. Tarmoq mashinalarini kompyuterli boshqaruvi

6. Iqtisodiy qism.

7. Xulosalar

8. Adabiyotlar ro‘yhati

9. Ilova.

2.4. Diplom loyihasi grafik qismining tarkibi va qisqa mazmuni

(bajariladigan grafik materialning hajmi

1. *Konstruktorlik qismi*

1. Yangi taklif etilgan elevatorni umumiy ko‘rinishi va kinematik sxemasi- A1
2. Elevatorni ishchi qismlari – A1
3. Pressshaklni umumiy ko‘rinishi-A1

II. Texnologik qism

1. Detal va tayyorlama ishchi chizmalari – A1
2. Detalga ishlov berish eskizlari - A1
3. Moslama ishchi chizmasi – A1

III. Iqtisodiy qismi

1. Texnik – iqtisodiy ko‘rsatkichlar – A1

3. Diplom loyihasi himoyasi 13.052018y.

4. Topshiriq berilgan sana 25.01.2017

5. Kafedra mudiri _____ t.f.n., Rasulov R.X
(imzo) (F.I.Sh.)

6. Rahbar _____ t.f.n., Safoyev A.A
(imzo) (F.I.Sh.)

7. Bajaruvchi _____ Umarov A.A
(imzo) (F.I.Sh.)

MUNDARIJA

№

BET

KIRISH

I. KONSTRUKTORLIK QISMI

- 1 Paxta xomashyosini tashish uchun mexanizatsiya vositalari majmuasi
 - 1.1 CHigitli paxta uchun mexanik tashish vositalari
 - 1.2 Sanoatda qoʻllanilayotgan elevatorlar
 - 1.3. Toʻplangan chigitni buzish va tashish vositalariga yuklashni mexanizatsiyalashtirish vositalari
 - 1.4. Toʻplangan chigitni buzish va tashish vositalariga yuklashni mexanizatsiyalashtirish vositalari
 - 1.5. 1EXS elevator kovshini zamonaviy kompozitsion materiallardan loyixalash
 - 1.6. Elevator yuritmasi xisobi

II. TEXNOLOGIK QISMI

- 2.1 1 EXS elevatorini «VAL» detalini tayyorlash texnologik jarayoni
- 2.2 Mexanik ishlov berishdagi operatsiyalarni hisoblash.

III MEXNAT MUXOFAZASI VA EKOLOGIYA QISMI

- 3.1. Ishlab chiqarish jarayonini xavfsiz olib borishning asosiy talablari.
- 3.2. 1 EXS uskunasini xavfsizligi
- 3.3. Paxta va chigit elevatorlari xavfsizligi.

IV. TARMOQ MASHINALARINI KOMPYUTERLI BOSHQARUV QISMI

- 4.1 Paxtaga birlamchi ishlov beruvchi zavodlar, ishlab chiqarish jarayonlari avtomatlashtirishning rivoji va istiqbollari holati

V. IQTISOD QISMI

- 5.1 Yangi yoki takomillashtirilgan texnikani ishlab chiqarishga joriy etishdan olinadigan iqtisodiy samaradorlik
- Xulosa
- Adabiyotlar
- Ilova

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev 2020-yilga qadar mamalakatimizni turli xil viloyatlarida yetishtirilayotgan paxta tolasini chuqur qayta ishlash uchun to'qimachilik sanoatini rivojlanishiga katta e'tibor qaratilishini, ko'plab yangi to'qimachilik korxonalari barpo etilishini va buning uchun 40 mlrd. AQSH dollarida mablag' ajratilishini ma'lum qildi [1].

O'zbekiston dunyoda paxta etishtirish bo'yicha oltinchi, uni eksport qilish bo'yicha uchinchi o'rinda turadi. Mamlakatimiz jahon to'qimachilik bozorining eng faol ishtirokchilaridan biri hisoblanadi.

Ishlab chikarish kurilishi uchun muljallanaetgan jami investitsiya-larning kariyb to'rtidan uch qismini yangi ishlab chiqarish korxonalarini barpo etish, rekonstruksiya va modernizatsiya qilish uchun yunal tirishga to'g'ri kelmokda. Mazkur maksadlar uchun tuzilayotgan pudratchi kqrilish-montaj tashkilotlari, barcha xududlarda shakllantirilayotgan ularning kuchli moddiy - ishlab chiqarish bazasi nafaqat uy-joylar, balki sanot va xizmat ko'psatish obektlarini qurishga ham jalb etiladi.

Sohada o'tkazilayotgan islohatlarga bois "O'zbekistonda ishlab chiqarilgan" tang'asi tushurilgan paxta tolası dunyoda etakchi hisoblangan shu jumladan, Liverpool, Nyu-York, Bremen, Gdanski singari birjalarda munosib o'rin egallomoqda. Shu o'rinda "O'zpxatasanoat" birlashmasi tizimidagi korxonalar foaliyati ham bunga yorqin misol bo'ladi.

Respulikamiz katta eksportimkoniyatiga ega bo'lgan eng muhim mahsulot paxta etishtiruvchi va undan tayyorlangan maxsulotlar ishlab chiqaruvchi hamda etkazib beruvchi asosiy mamlakatlardan biridir.

Bozor iqtisodiyotining talablaridan biri ishlab chiqraishda raqobatbardosh mahsulot etishtirishdan, mavjud texnologik jaroyonlarni takomillashtira borib, mahsulot tannarxini kamaytirishdan iborat. Bularning barchasini keng qamrovda amalga oshirishda, muttaxassislardan yuqori bilimdonlikni, tajribani hamda tadbirkorlikni talab etadi.

Respulikamiz o'z oldiga ilmmiy-texnik taroqqiyotning rivojlanishiga ishlab chiqarishning oshishi hamda mahsulot yuqoriligiga erishishning dolzarb vazifasi xisblanadi.

O'zbekistonda tola ishlab chiqarish bilan birga to'qimachilik sanoati ham samarali rivojlanmoqda. Bu yuqori qo'shimcha qiymatga ega mahsulotlarni eksport qilishga qaratilgan juda to'g'ri va puxta o'ylangan yondashuv bo'lib, milliy iqtisodiyot samaradorligini yanada oshirish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Jahon amaliyoti shuni ko'rsatadiki, chetdan olib kelinadigan emas, balki maxalliy xom ashyoga asoslangan to'qimachilik sanoati biznesning eng foydali yo'nalishlari hisoblanadi. Shu bois xorijiy ishbilarmon doiralar vakillari O'zbekiston to'qimachilik sanoatiga investitsiya sarflashdan manfaatdordir. Bugungi kunda mamlakatimizda ushbu sohada qarib 150dan ortiq qo'shma korxona faoliyat ko'rsatmoqda.

Bozor iqtisodiyotining asosiy talablaridan biri jumladan, paxtani qayta ishlashda raqobatbardosh maxsulot ishlab chiqarish, mavjud texnologik mashinalar va jihozlarni takomillashtirib borish, maxsulot tannarxini kamaytirishdan iborat. Shu jihatlarni inobatga olgan holda paxtani qayta ishlashdagi mexanizatsiya qurilmalaridan hisoblanadigan vintli konveyrni yuritmasini takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish albatta dolzarb hisoblanadi.

Paxta tozalash korxonalarini ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda zamonaviy texnika va texnologiyalarni joriy etish orqali qayta texnik jihozlash maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Paxtani birlamchi ishlov berish texnologik jarayonlarini muhim bo'g'inlaridan biri bo'lib paxtani chiqindilardan tozalash hisoblanadi, chunki chigitli paxta sifatli tozalash bevosita olinadigan paxta tolasini ham belgilab beradi. Hozirda ishlatilayotgan chigitli paxtani tozalash mashinalarida har doim ham kerakli natijalarga erishib bo'ladi deb bo'lmaydi, chunki talab etilgan tozalash samaradorligiga erishish asosan chigitli paxtaga ko'rsatayotgan mexanik, zarbiy ta'sirlarni kuchaytirish yoki oshirish hisobiga amalga oshirilmoqda. Bu esa o'z navbatida paxta tolasini va chigitini shikastlanishini turli xil nuqsonlarni oshishiga olib kelmoqda. Paxtatozalash sanoatiga qo'yilayotgan katta vazifalarni bajarish uchun paxtatozalash korxonalariga yangi texnika va texnikalarni joriy etish talab etiladi.

KONSTRUKTORLIK

QISMI

LINTERLARNI TURLARI, ULARNI TUZILISHI VA ISHLASHI.

Momiq olish jarayoni va uning mohiyati AQShda 1855-1870 yillarda paydo bo'lib, keyinchalik takomillashtirilib borilgan. ^MKarver^M rusumli momiq ajratkich - H^{er} boshlang'ichi xisoblanadi.

AQShda momiq ajratish jarayoni yog' - moy kombinatlarida amalga oshiriladi, chunki paxta tozalash korxonalarida, faqat jinlash va toylash jarayonlari mujassamlashgandir. Shuning uchun birinchi momiq ajratkichlar tola ajratkichlardan kam farq qilib, faqat arralar miqdori ko'paytirilgan bo'lib, arrali silindr valida 160 arra yig'ilgan. Chigitlarning bir-biriga ilashish xususiyati pastligini xisobga olib hamda chigit valigi tashkil bo'lib aylanishi uchun, ishchi kameraga to'zitgich qo'yilgan. Xuddi tola ajratkich singari arralar o'z tishi bilan tolani uzib olib va qirtishlab, uni qobirg'alar oralig'idan olib o'tadi. So'ng havo yordamida arra tishlaridan ajratib olinadi.

Respublikamizda 1920-yillarda paxta tozalash korxonalarida bir qatorli momiq ajratkichlarda bor yo'g'i 0,5-0,7 % momiq ajratib olinar edi. Momiqlar to'qimachilik sanoatida ishlatilar, qolgan chigitlardan yog'-moy kombinatida momig'i ajratib ishlatilgan, shunda umumiy xisob 3,5-4,0 % ni tashkil etgan. Hozirgi sharoitda momiqni olish uchun bir yoki ikki qatorli linterlar ishlatiladi. Asosan xisob-kitob quyidagicha bo'ladi:

3XДДМ - УЫПД rusumli jinlar qo'llaniladigan paxta tozalash korxonalarida 1:2 xisobida, DP-130 rusumli jinlar qo'llanilganda esa 1:4 xisobida, masalan: agar 4 ta jin (3XДДМ) ishlatilsa, unda 8 ta ikki qatorli linterlar qo'llaniladi. Reja bo'yicha chigitlarning miqdoriga nisbatan, momiqning 1-qatordagi miqdori 3,8-6,3 %, II-qatordagi miqdori esa 3,8-6,5 % tashkil etadi, undan 1-qatorda 2,8-4,2 % gacha, II-qatorda 1,0-2,3 % gacha momiq olinadi. Linterning ish unumdorligi uning chigitni o'tkazuvchanlik qobiliyatiga bog'liqdir, ya'ni bu ko'rsatkich 650 kg/soat dan 2200 kg/soat ga tengdir, bunda chigitni tozalash samaradorligi 10-20 % ni tashkil etadi.

Shunday qilib, 4 ta jinli va 2 qatorli linterlar ishlatilganda paxta tozalash korxonasida ish unumdorligi 2200 kg/soatga (chigit bo'yicha) tengdir.

Paxta tozalash korxonalarining linterlash bo'limiga o'rnatilgan linterlarning asosiy vazifasi chigitning yuzasidagi momiqni mexanikaviy, ya'ni arra tishlari bilan ajratib olishdir. Linterlarga quyidagi talablar qo'yiladi: linterlash jarayonida chigit xamda momiq shikastlanmasligi, momiqqa iflosliklar va aralashmalar qo'shilmasligi kerak, momiqning sifatini, chigitning tukdorlik darajasini va linterning ish unumdorligini boshqarib boruvchi mexanizm (asbob-uskuna) ishlashi zarur.

Linterlash texnologik jarayonida chigitga mexanik ta'sir qiluvchi, chigit bilan ta'minlanish borasida yarim avtomat ishlovchi xisoblanadi, o'zining ishi bilan to'g'ri oqimli mexanizmlar qatoriga kiradi.


Momiqni arra tishidan ajratib olishda esa, u havo kamerasi yordamida yuqoridan havo pudovchiga kiradi. Arralar miqdoriga qarab linterlar 160 arrali deyiladi.

1949 yili "PAXTASAMOATILM" ning ilmiy izlanishlariga asosan ХЛФ rusumli linter ishlab chiqildi, unda momiqni arra tishidan havo yordamida ajratib olinar edi. Bu mashinaga asoslanib keyinchalik, ya'ni 1953 yili 160 arrali ПО-160 rusumli, so'ng 1956 yili ПОМ-160 rusumli linterlar yaratildi. Bularning ish unumdorligi momiq bo'yicha 30- 35 kg/soat ga teng bo'lgan. Kamchiliklari esa, chigit tozalash uskunasi yo'qligi, avtomatik boshqarish mumkin emasligidir.

Keyinchalik PMP-160M rusumli, UMPL ishchi kamerasi bilan, 5-KП va 6-LП rusumli linterlar ishlab chiqildi. Bularning ish unumdorligi ancha yuqoridir. Masalan 5-KП rusumli linterning momiq bo'yicha ish unumdorligi 100 kg/soat va chigit bo'yicha ish unumdorligi 2200 kg/soat. Linter chigitni qabul qiluvchi-tozalovchi (KПП) o'rnatilgani bilan xam farq qiladi. Undan tashqari ishchi qismida arra tishlarining qobirg'ali panjaraga kirishi uzaytirilgan, to'zitkichning aylanish tezligi ko'paytirilgan (500 min^{-1}) xamda ishchi kamerasining yuzasi kattalashtirilgan, buning hisobiga umumiy ish unumdorligi 40-55 % ga oshgan.

5- JП linterining ishlashi quyidagicha (5.2-rasm): Linterning tepasida joylashgan shaxtaga chigitni taqsimlovchi shnek tushirib beradi. Shaxtadan esa chigit KПП rusumli ta'minlagichga tushadi, u erda impulsli variator orqali

xarakatga keluvchi qabul qiluvchi valikka tushadi, undan tituvchi -tekislovchi qoziqchali- plankali barabanga tushadi. Chigitni qabul qiluvchi valik chigit valigining zichligiga qarab 0 dan 20 ayl/daq. da xarakat qiladi. Qoziqchali-plankali baraban chigitni 2,5 x 3 mm teshikli to'r yuzasidan sudrab o'tadi. Qoziqcha va plankalar ta'sirida xamda markazdan qochma kuch va plankaning aylanishida hosil bo'ladigan havo oqimi hisobiga chigit miqdorida bo'lgan mayda chiqindilar va iflosliklardan tozalab, pastga tushirib yuboriladi va chiqindi konveyeriga tushadi. Planka bilan to'r oralig'idagi tirqish 10-15 mm ga tengdir, bu esa chigitning shikastlanishini oldini oladi.



5.2-rasm. 5-III rusumli linter.

1-KIII rusumli ta'minlagich; 2-chigit tuzuvchi nov; 3-chigitni ishchi kameradan qaytib chiqishini oldini oluvchi ^zinali to'sqich; 4-ishchi (chigit) kamerasi; 5- to'zitkich; 6-arrali silindr; 7-havo kamerasi; 8-ulyuk konveyri; 9-chiqindi konveyri; W-elektropereklyuchetel; 11 -asos;

Linterning ishchi kamerasiga chigitning bir maromda tushishiga va intensiv titib berishiga sabab, qoziqcha - plankalarning shaxmatli joylashishi hamda

ularning bir xil tezlikda aylanishidir. Shu sabablar asosida ishchi kameradagi chigit valigining zichligi bir maromda bo'ladi hamda chigitning bir tekis tuksizlanishiga olib keladi (momiqni chigitdan olish), shunda chigitning shikastlanish darajasi kamayadi.

Lintening ishchi kamerasi (4) da aylanuvchi to'zitkich (5) va arrali silindr (6) hisobiga kameraga tushuvchi chigitlar aylanuvchi chigit valigini hosil qiladi. Arra tishlari bilan chigit valigiga kirib, chigit yuzasidagi tolali massani ilib yoki qirib oladi - buni momiq deyiladi.

Arra tishiga ilingan momiq arraning aylanishiga qarab ishchi kameradan olib chiqiladi. Bunda chigit valigining zichligi katta ahamiyatga ega. Chunki zichlik qancha katta bo'lsa, shuncha arraga ilingan momiq miqdori (foizda momiq olish miqdori yoki s'yom) ko'p bo'ladi. Natijada lintening momiq bo'yicha ish unumdorligi ortadi. Arra tishlariga ilingan tola kolosnik oralig'idan olib o'tiladi va havo bo'linmasining saplosiga kelganda undan chiqayotgan havo tezligi hisobiga arra tishlaridan ajratib olinadi. Momiqni ajratib pastga, ya'ni havo kamerasining momiq ketuvchi gorlovinasiga tushirib beradi, u erdan esa havo bilan momiq kondensorga ketadi. Saplodan chiqayotgan havo momiqni arra tishidan ajratadi, u erda joylashgan ulyuk reykasining turishi hisobiga momiqda bo'lgan chiqindilarni ham ajratadi va chiqindi tashuvchi konveyerga tushirib beradi.

Chigitlar esa, ularning yuzasidan momiqni olinishiga qarab, (tuksizlangani uchun) chigit valigidan ajrab kolosnik yuzasiga tushadi va sirg'alib pastga chigit konveyeriga tushadi va keyingi jarayonga olib ketiladi.

Chigitning chiqishi chigit tarog'i orqali rejalashtirilib turiladi. Chigit tarog'i qancha yuvoriga ko'tarilgan bo'lsa, shuncha chigit valigining zichligi ortib, momiq olish miqdori ko'payadi, agarda pastga tushirilgan bo'lsa, chigit valiginin zichligi pasayib, momiq olish miqdori kamayadi, lekin chiqayotgan chigitning toladorligi yuqori bo'lib, umumiy momiq chiqishi miqdori pasayib ketadi, chunki ancha foiz momiq chigit bilan ketib qoladi. Bunday holatda olingan momiqning uzunligi yuqori bo'lib, momiq A tipiga mansub bo'ladi.

Lintar ishining asosiy ko'rsatkichlari bo'lib, momiq ajratish darajasi va

chigit bo'yicha ish unumdorligi hisoblanadi.

Linter ish tartibini sozlash ikki usulda amalga oshiriladi:

- chigit tarog'ini holatini o'zgartirib;
- chigit bilan ta'minlash tartibini o'zgartirib.

Chigit tarog'i holatini o'zgartirib, chigitdan momiq ajratish darajasi o'zgartiriladi. Chigit bilan ta'minlash rejimini o'zgartirib, linterning chigit bo'yicha ish unumdorligi o'zgartiriladi.

Chigit tarog'ining uchi bilan kolosnik oralig'ining kattalashishi linterning chigit bo'yicha ish unumdorligining oshishiga va shuning bilan birga foiz hisobidagi momiq ajratish miqdorining pasayishiga sabab bo'ladi. Momiq ajratish miqdorini ko'paytirish uchun chigit tarog'ining uchi bilan kolosniklar oralig'ini kamaytirish kerak, bunda linterning chigit bo'yicha ish unumdorligi pasayadi. Linterni chigit bilan ta'minlashni sozlash ishchi kameradagi chigit massasining zichligiga qarab bajariladi. Linterning chigit bo'yicha ish unumdorligi ishchi kameradagi chigit zichligi dastagi bilan variatorni bog'lovchi zanjir uzunligini o'zgartirish hamda zichlik dastagi richagidagi yukning holatini o'zgartirish bilan amalga oshiriladi. Ulyuk va iflosliklarni ajratishni sozlash havo kamerasining ulyuk ajratish reykasining holatini o'zgartirish bilan bajariladi. Linter 1,1 kVt quvvatga ega bo'lgan elektrodvigatel, chervyakli reduktor va dastaklar sistemasidan iborat bo'lgan ishchi kamerani ko'tarish mexanizmi bilan jixozlangan. Mexanizm linterni boshqarish pultiga o'rnatilgan knopka orqali boshqariladi. Knopka bosilganda ishchi kamera pastga tushib, boshlang'ich holatida to'xtaydi.

1.1 Linterlash dastgohining texnika va texnologiyalarining hozirgi xolati

Paxta tozalash korxonalarida chigitdan momiq ajratish linterlarda bir necha karrali va turli tezkorlikda amalga oshiriladi.

U yoki bu turdagi momiq olinishining zarurligiga qarab quyidagi texnologiyalar qo'llanilishi mumkin:

- birinchi marotaba linterlashda sifatli momiq olish maqsadida chigit taroqlari siqilmagan holda linterlanadi.

- ikkinchi marotaba linterlanganda, chigit yuzasidagi momiqni imkon qadar ko'p qirib olish maqsadida chigit taroqlari siqilgan holda linterlash amalga oshiriladi.

Bu maqsadlar uchun UMPL ishchi kamerali PMP-160M, 5LP va 6LP rusumli linter agregatlari qo'llanilib, ularning hammasida arra tishidan momiq havo yordamida ajratiladi.

Linterlarda momiq ajratish usuli arralarni aylanib turgan chigit valigiga mexanik usulda ta'sir etib, chigitlar yuzasidan momiq qirib olishiga, so'ngra arra tishidan havo yordamida ajratilishiga va kondensorgacha olib borilib, u erda havodan ajratishga asoslangan.

Linterlarning asosiy ko'rsatkichlari chigitdan ajratilgan momiq miqdori va chigit bo'yicha ish unumdorligi hisoblanadi.

Tanlangan momiq ajratish texnologiyasi va kerakli turdagi momiq ajratish zaruriyatiga qarab, har qaysi linterlash pog'onasida kerakli linterlash miqdori tanlanadi va uni hisobga olib linterlarning ish unumdorligi sozlanadi.

Foydalanilayotgan arralarning diametri va ularning ishlash muddati linterning ish unumdorligiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi.

Arralar diametri kichiklashishi bilan momiq chiqarish miqdori o'zgarmagan holda mashinaning chigit bo'yicha ish unumdorligi pasayadi.

Arralarning ishlash muddatiga qarab linterning chigit o'tkazish qobiliyati R momiq chiqarish miqdori o'zgarmagan holda quyidagi tenglama bilan ifodalanadi:

$$P = P_n - Kt,$$

bu yerda R_n – linterning chigit bo'yicha dastlabki ish unumdorligi 2300 va 2000 kg/s bo'lgani holda ishlaganda birinchi va ikkinchi momiq ajratish miqdori 3,0 va 2,5 foizga

teng; K - proporsionallik koeffitsienti bo'lib, u 18,75 ga teng; t-arralarning ishlash vaqti (1 soatdan 48 soatgacha).

PMP-160, PMP-160M, 5 LP va 6 LP rusumli linterlari


Mahsulotning sifat va miqdor ko'rsatkichlarini yaxshilash maqsadida PMP-160M linterlar 5LP rusumli linterlar bilan almashtirilmoqda.

5LP linterining PMP-160M linteridan asosiy farqi unda kattalashtirilgan UMPL ishchi kamera o'rnatilgan.

5LP linterlarining umumiy sxemasi 1- rasmda keltirilgan.

Ish jarayonida chigit avval ta'minlovchi valikka uzatiladi. Ta'minlovchi valiklarga variator o'rnatilgan. Variatorni vazifasi ishchi kamerada chigit miqdorini bir me'yorda ushlab turish. Agarda ishchi kamerada chigit zichligi kamaysa variator avtomatik ravishda ta'minlovchi valikni tezroq aylantirib chigitni ko'proq tushiradi. Aksincha ishchi kamerada chigit miqdori ko'paysa ta'minlovchi valikni ishini sekinlashtiradi. Chigit ta'minlovchi valikdan so'ng qoziqchali baraban va to'r oralig'idan o'tib, mayda va yirik iflosliklardan tozalanadi. Bu bilan bir qatorda barabanning harakatlanishi oqibatida qoziqchalar chigitga o'z xolicha ta'sir etishi tufayli ularni yoyilishiga va ishchi kameraga bir tekisda sochilgan xolda berilishini ta'minlaydi[2].

Chigit ishchi kameraga tushgach asosiy jarayon boshlanadi. Bunda chigitni ustki qismidagi momiq arra tishlari yordamida qirib olinadi.



1-rasm. 5LP linterining sxemasi

1- kolosnikli panjara; 2- chigit tarog'i; 3- to'zitqich; 4- ishchi (chigit) kamerasi; 5- zichlik dastagi; 6- magnit plitasi; 7- ta'minlash tarnovi; 8- tekislovchi qoziqli-kurakli baraban; 9- ta'minlash valigi; 10- impulsli variator; 11- to'rli sirt; 12- ifloslik shnegi; 13- havo kamerasi; 14- ulik chiqaruvchi; 15- momiq olib ketish quvuri; 16- arrali silindr; 17, 18 – tarnov

Momiqni to'liq hamda sifatli olish uchun to'zitqich va chigit tarog'i ishtirok etadi. To'zitqichning asosiy vazifasi ishchi kameradagi chigitlarni arra tishlariga yo'naltirishdan iborat. Chigit tarog'ini vazifasi esa kerakli miqdorda momig'i ajralmagan chigitlarni o'tkazib yubormaslikdan iborat. Qirib olingan momiq arra tishlari bilan kolosniklar oralig'idan o'tadi va havo yordamida arra tishlaridan ajralib olinadi. Ajratib olingan momiq tozalanadi va preslashssexiga beriladi.

Linterlar konstruksiyasi bo'yicha 320, 310, 300 va 288 mm li diametrga ega bo'lgan arralardan foydalanish imkonini beradi.


Linterga boshqa diametrdagi arralarni o'rnatishda havo kamerasining va kolosniklar panjarasining holati qayta sozlanishi kerak bo'ladi.

Arra tishlari va havo kamerasining soplosi orasidagi tirqish kamerani gorizontal tekislikda yo'naltiruvchi maxsus vintlar yordamida surib sozlanadi.

PMP-160 va 5LP rusumli linterlarning asosiy texnik tasniflari 1-jadvalda keltirilgan.

6LP linter agregati ikki xil: 6LP va 6LP-01 variantlarda chiqariladi. U bir mashinada chigitning ikki marotaba ketma-ket linterlanishini amalga oshirishga mo'ljallangan (2- rasm). Linterlash jarayoni PMP-160M va 5LP mashinalardagidek bajariladi. Ustki va ostki seksiyalar ishini sinxronlashtirish, shuningdek ularning ishini o'rnatilgan tartiblarda turg'unlashtirish - pastki seksiyaning zichlik klapanini variator bilan bog'lovchi tortgichdagi tayanchlarning holatini o'zgartirib amalga oshiriladi[3].

Agregatni ishga tushirish paytida ustki seksiyaga ortiqcha yuklanish bo'lsa, ustki tayanchni pastga tushirib qo'yiladi. Ustki seksiyani chigit bilan to'ldirishni tezlashtirish uchun ostki tayanchni yuqoriga ko'tarib qo'yish kerak. 6 LP linterlash dastgohining asosiy texnik tasniflari 2-jadvalda keltirilgan.



2-rasm. 6LP linter agregatining sxemasi

1. KPP ta'minlagichi; 2- ta'minlash tarnovi; 3- birinchi momiq ajratish seksiyasining ishchi kamerasi; 4- birinchi momiq ajratish seksiyasining arralissilindri; 5- vintli ifloslik konveyeri; 6- ikkinchi momiq ajratish seksiyasining ishchi kamerasi; 7- ikkinchi momiq ajratish seksiyasining arralissilindri; 8, 9- birinchi va ikkinchi momiq ajratish seksiyalarining havo kameralari; 10- ifloslikni yig'ish va so'rib ketish bunkeri.

UMPL kamerali PMP-160M va 5LP linterlarining texnik tasnifi

1-jadval

Ko'rsatkich nomi	Ko'rsatkich miqdori	
	UMPL kamerali PMP-160M	5LP
1	2	3
Chigit tukdorligi 14 % bo'lganda, chigit bo'yicha ish unumdorligi, kg/h:	2000 gacha 1700 gacha	2000-2300 1500-1700
birinchi momiq ajratishda 2,8-3,0%		
ikkinchi momiq ajratishda 3,0-3,2 %	2,5	2,5
Chigit jarohatlanganligining o'sishi, %		
ifloslikni olib ketish uchun	0,12	0,12
havo sarfi, m ³ /s	31,2	30,6
o'rnatilgan quvvat, kW:		
shu jumladan:	18,5	18,5
-arralissilindrga	11,0	11,0
-to'zitqich va ta'minlagichga	1,1	1,1
-ko'tarish mexanizmiga	0,6	-
-ulik konveyeriga		
Aylanish tezligi, rad/s (min ⁻¹):		
-arralissilindrning	76,93± 2,09(735± 20)	76,41± 2,09(730 ±20)
-to'zitqichning	52,33 ±1,26(500 ±12)	52,33 ±1,05 (500 ±10)
-tekislovchi barabanning	29,26± 0,94(270± 9)	29,20 ±0,63(279 ±6)
-ulik konveyerining	4,08(39,0)	-
-ta'minlash valigining	2,09(0-20)	0,84(0-8)
Texnologik tirqishlar, mm:		
-ishchi zonada kolosniklar orasida	2,3-3,1	2,4-3,0
-kolosniklarning yuqori qismi orasida	3,0-3,5	-
-pastki qismi orasida	3,5-4,7	-
-tekislovchi baraban va to'rli sirt orasida		
-arralissilindr va to'zitqich orasida	12-15	10-15
-arralissilindr va havo kamerasining	9-12	9-12
soplosi orasida		
-ishchi kamera devori va to'zitqich	1,5-2,0	0,5-3,0
kuraklari orasida		
-arralar va ulik koziregi orasida	1,5	1,5
-arralarning kolosnikdan chiqib	15-60	15-60
turishi, mm		
arra diametri, mm	28-32	25-32
O'lchamlari, mm:	270-320	290-320
uzunligi		
kengligi	3129	3265+65
balandligi	1488	1775+35
Massasi, kg, (ko'p emas)	1990	2095+40
	2248	2431+50

6-LP linterining texnik tavsifi

Ko'rsatkich nomi	Ko'rsatkich midori	
	6LP	6LP-01
1	2	3
Momiq bo'yicha ish unumdorligi, kg/h:	88	88
Chigit bo'yicha ish unumdorligi, kg/h, (kam emas)	1180	1500
1	2	3
Momiq ajratish miqdori, %, (kam emas)	8	6
Mahsulotning yo'qotilishi, %, qo'p emas:		
chigit	0,064	0,064
tolali material	0,048	0,048
Tozlash samaradorligi, %, (kam emas)	15	15
Chigit mexanik shikastlanishini o'sishi, %, (ko'p emas)	2,5	2,5
O'rnatilgan quvvat, kW		
shu jumladan:	61,2	61,2
-har qaysi arralissilindrda		
-birinchi seksiya ta'minlagichi va to'zitqichida	18,5	18,5
-ikkinchi seksiya to'zitqichida	11	11
-Har qaysi ishchi kamera qo'targichida	11	11
Arralar miqdori, dona:	1,1	1,1
-birinchi seksiyada		
-ikkinchi seksiyada	160	100
qayta tish chiqarilgandan so'ng arraning eng kichik diametri, mm	160	160
Ta'minlagichdagi changni yo'qotish va ifloslikni olib ketishga havo sarfi, m ³ /s	290	290
Havo kameralarida havoning statik bosimi 1764	0,15-0,25	0,15-0,25
N/m ² bo'lganda momiq chiqarish uchun kerakli havo miqdori m ³ /s, (ko'p emas)	1,0	1,0
Aylanish tezliklari rad/s (min ⁻¹):	1,0	1,0
-arralissilindrning		
-to'zitqichda		
-ta'minlovchi valikning	76,93 (735)	76,93 (735)
-tekislovchi barabanning	52,33 (500)	52,33 (500)
Texnologik tirishlar, mm:	0-1,04 (0-10)	0-1,04 (0-10)
-ishchi kameradagi kolosniklarda	20,93 (200)	20,93 (200)
-tekislovchi baraban kuraklari va to'rli yuzada	2,4-3,0	2,4-3,0
-arralissilindr va havo kamerasi soplosida	10-15	10-15
-arralissilindr va to'zitqichda	0,5-3,0	0,5-3,0
Arraning kolosnikdan chiqib turishi, mm	9-12	9-12
O'lchamlari, mm, ko'p emas:	25-30	25-30
-uzunligi		
-kengligi	3300	3300
-balandligi	2000	2000
Massasi, kg, (ko'p emas)	2630	2630
	4000	3970

1.2 Linterlashning muvofiqlashtirilgan texnologiyasi

Keyingi yillarda linterlarni takomillashtirish, uning ish unumdorligini oshirish, arrali valda arralar sonini oshirilishi, ishchi kameraning hajmini kattalashtirish, momiq va chigitning sifat va miqdor ko'rsatkichlariga ta'sirini o'rgangan xolda arralissilindr va to'zitqichning tezlik tartiblarini ishlab chiqish yo'nalishida ishlar olib borildi. Aniqlanishicha xar-hil chiziqli tezlikdagi to'zitqich va arra tishlari ta'sirida aylanma xarakat qilayotgan chigit davriy arralissilindr tishlari ta'siri ostida bo'ladi. Arra tishlari chigitga asosan uchta joyda ta'sir ko'rsatadi:


- arralarning chigit tarog'i yonida, ishchi kameraga kiradigan joyda chigit arra tishlariga tegib o'z harakat yo'nalishini o'zgartiradi va tishlar harakati yo'nalishida harakatlanadi. Bu paytda zichlik kamligi tufayli chigit yuzasidan momiq qisman qirib olinadi;

- chigitlar to'zitqich hamda arra tishlari orasidan o'tgan paytda zich holatda bo'ladi. Bu paytda asosiy momiq qirib olinadi;

- arra kolosniklar oralig'idan o'tish paytida.

Linterlash jarayoniga mashinaning ishchi kamerasi katta ta'sir ko'rsatadi. 3-rasmda 5LP rusumli linterlash mashinasining ishchi kamerasi keltirilgan.

Zamonaviy 5LP rusumli linterlash mashinalarida arralissilindrda arralarning chiziqli tezligi 12,3m/s, to'zitqich parraklarining chiziqli tezligi esa 4,2m/s ni tashkil qiladi. SHundan kelib chiqib arra tishlari chigit massasiga 8,1m/s tezlik bilan ta'sir ko'rsatadi deb hisoblash mumkun. Bunday yuqori tezlikda arrani chigitga ta'siri hamda to'zitqichni chigit valigiga zarbi natijasida chigit sirtidan momiqni qirib olish jarayonida chigitlar shikastlanadi. Chigit valigining zichligi kam bo'lsa to'zitqich parraklari chigitga bosim ko'rsata olmaydi. Bu holatda momiq qirib olish samaradorligi pasayib ketadi, shu bilan birga chigit mexanik ta'sirga ko'p uchrashi natijasida shikastlanishi ortadi.



3-pacm. 5 LP rusumli linterlash mashinasining ishchi kamerasi.

1- ishchi kamera; 2- to‘zitqich; 3- chigit tarog‘i;
4- kolosnik; 5- arralissilindr; 6- zichlik klapani.

Chigit valigining zichligi ko‘p bo‘lsa, chigitdan momiq ajralishi ko‘payib boradi. To‘zitqich konstruksiyasiga qaraydigan bo‘lsak, to‘zitqich parraklari arra tishiga etarlicha miqdordagi chigitni yo‘naltira olmaydi.

Yuqoridagi kamchiliklarni bartaraf etish maqsadida ko'pgina ilmiy izlanishlar olib borilgan.

1969-yil sobiq NIIXProm olimlari tomonidan o'zgartirilgan o'lchamdagi yangi ishchi kamera taklif qilingan va ishlab chiqarilib tajriba o'tkazilgan. Natijada chigitni arra tishiga yo'nalishi oshgan. Bu yangilikka ko'ra to'zitqich dimetri 180 mm ni, arralissilindr diametri esa 420 mm. ni tashkil qilgan. Ammo arra diametrini kattaligi turli noqulayliklarga olib kelgan[4].

1971-yilga kelibssNIIXProm olimlari tomonidan diametri 320 mm li arralar joriy etilgan.

1972-yilda A.D.Bekmuxamedov to'zitqichning parraklari soni linterlash jarayoniga ta'sirini o'rgangan. Bu ilmiy izlanishlarda parraklar soni 4 tadan 12 tagacha qilib tajribalar o'tkazgan. Tajriba asosida shu aniqlandiki, to'zitqichning parraklari soni 4 tadan 8 tagacha ko'paytirilganda momiq qirib olish ish unumdorligi oshgan. To'zitqich parraklari soni 8 tadan ko'paytirilganda salbiy natijalar olingan, ya'ni ish unumdorligi pasayib ketgan[5].

N.G.Gilmanovva A.Umarovlar ishlarida chigitni bir me'yorda berib jadal tuksizlantirish jarayonini o'rganishgan[6].

SNIXProm ning 1982-yilgi tavsiyasiga ko'ra mahsulot sifat va miqdor ko'rsatkichini yaxshilash maqsadida PMP-160M linterlar UMPL ishchi kamerali 5LP rusumli linterlar bilan almashtirilgan. Tajribalar shuni ko'rsatdiki, 5LP linterlash mashinasi me'yoriy hujjatida berilgan ishlash samaradorligini bor-yo'g'i 50-60% ini bajara oladi. Bu esa elektroenergiyani ko'p sarflanishiga hamda ko'p ishlab chiqarish maydonini egallanishiga sabab bo'ladi. Linterlash jarayonini samaradorligini pasaytiruvchi asosiy sabablardan yana biri chigit massasini ishchi kamerada turib qolishidir. Buni keltirib chiqaruvchi asosiy omil-ishchi kamerani kattaligi hamda to'zitqichning konstruksiyasidagi kamchiliklardir. Aylanuvchi chigit massasini kamerada ortiqcha turib qolishi elektroenergiya sarfini ortishiga olib keladi. Arra tishlariga kuchlanish ko'p tushishi natijasida tishlarni ishlash muddati kamayadi hamda chigit mexanik kuchlar tasirida ko'p qolganligi sababli shikastlanish darajasi ortadi.

A.K.Kalimulin tadqiqotlarida aniqlandiki, chigit tarog'i holati lintni chigit o'tkazish qobiliyatiga qarab almashtirib ishlatish mumkin. Chigit tarog'i hamda kolosnikli panjara orasidagi oraliqdagi mavjud tizimni o'zgartirish-gorizontal bo'shliq va vertikal bo'shliq (o'z o'qi atrofida aylantirish) lint olinishini sozlanishini ta'minlamaydi. Faqatgina chigit tarog'ini gorizontal bo'shliq 15⁰C oraliqda tekis aralashtirilgandagina lint olinishini sozlashini ta'minlaydi.


Chigit tarog'inissilindrli arraga oraliqni ochish uchun yaqinlashtirilganda momiq olinishi pasayadi, ushbu jarayonda chigit tiqilishi yuz beradi hamda chigitning kameradan chiqish to'xtaydi. Chigit tarog'ini oxirigacha aylantirilganda chigit kamera orqali valik hosil qilmasdan o'tadi. Shuni xam aytib o'tish kerakki, bir vaqtning o'zida urug'lik chigit o'tkazuvchanligi linterlash jarayonida momiqni jadal qirib olishdagi samaradorligiga va lint olishga ham ta'sir qiladi. Chigit yuzasidan lintni qirib olish jarayoni samaradorligini oshirish uchun sharoitlar mavjud bo'lmaganligi sababli linter ishining unumdorligini oshirishga imkon yo'q edi[7].

Hozirgi paytda PTKlardagi linterlashning texnologik jarayonida 5LP va PMP-160M rusumli linterlardan foydalaniladi. Bu mashinalarda linterlash jarayoni lintning ishchi kamerasiga chigitlar oqimini uzatish orqali amalga oshiriladi. To'zitqichning ishchi kamerasida va arralissilindrda aylanayotgan chigitlar zichlangan aylanma chigit valigini hosil qilishadi. Arralarning tishlari chigit valigining massasiga kirishib chigitlar yuzasidagi tolali qatlamni – momiqni qirib oladi va kolosnikli panjaraning orqa tomoniga chiqarib tashlaydi. Momiq qatlami borgan sayin qirib olinayotgan va tuksizlanayotgan chigitlar chigitli valikning massasidan ajralib boradi va kolosniklarga tashlab beriladi, so'ngra ular pastga, chigit konveyeriga yumalab tushadi. Lint ajratib olish darajasi to'zitqich parraging vertikal qismining uchi va arralissilindr garniturasining yuzasi orasidagi tirqish bilan aniqlanadi. Lint ajratish foizining pastligi sababli (1,5-2%) ishchi kameradan chigitlarning chiqarilishi qiyinlashadi va bu o'z navbatida chigitlarning linterlash zonasida uzoq qolib ketishiga hamda shu bilan birgalikda chigitlarning mexanik shikastlanishining oshishiga va lint sifatining pasayishiga olib keladi. Bundan tashqari, chigitlar bo'yicha o'tkazish qobiliyatini va lint bo'yicha unumdorlikning pastligi sababli PTKlarning texnologik tizimlarida reglament

(PDI 01-2007) bo'yicha har biri 6 ta mashinadan (jami 12 ta mashina) ikki qator linterlar batareyasi o'rnatiladi. Bu esa qayta ishlash jarayonining norentabelligiga olib keladi.

Avval qayd etilganidek, linterlash jarayonining belgilovchi muhim omillaridan biri- chigitlar yuzasidan lintni samarali qirib olish va o'z vaqtidan ishchi kameradan chiqarib yuborishdir.

K.K. Iskandarov tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlar natijasida chigit valigiga nafaqat aylanma ta'sir, balki valik o'qi bo'ylab chigitlarning siljishiga ta'sir ko'rsatuvchi to'zitqich konstruksiyasi taklif etildi(4-rasm). Oldindan arralissilindr yanada samaraliroq ishlatiladi va natijada mashinaning unumdorligi ortadi deb taxmin qilingan edi. Biroq konstruksiyadagi kamchiliklar sababli chigitlar massasining to'zitqich tomonidan bir xil zichlikka ega valik qatlamini hosil qilish uchun aralashtirish va itarib to'plash samarasi etarli



4-rasm. Linter uchun to‘zitqich

1- ishchi kamera; 2- to‘zitqich; 3- arrali silindr


bo‘lmadi. Natijada chigit valigining harakat tezligi kamayadi, uning zichligi esa ortib boradi. Zichlik ortishi bilan bosim zichlik klapaniga uzatiladi. Bu esa o‘z o‘rnida tepaga siqilib ta‘minlovchi valikning aylanish tezligini kamaytirish uchun signal yuboradi. Buning natijasida chigit uzatilishi kamayadi, chigit kameradan chiqish o‘rniga tiqilib qoladi va linter ishlab chiqarish xajmi pasaydi. Bundan tashqari, to‘zitqichlarga ko‘p metall ishlatilishi, murakkab tuzilishi sababli ishlab chiqarishda qo‘llanilmadi.[8]

5-rasmda to‘zitqichning yana bir konstruksiyasi-uzuq-uzuq parrakli to‘zitqich konstruksiyasi keltirilgan. U xam ishlab chiqarishga joriy etilmadi.

Sababi to‘zitqich linterlash mashinasining ishchi kameradagi chigit valigini zichligini ta‘minlab bermagan.

K.K.Iskandarovning ishida nazariy tomondan chigitlarning harakat yo‘nalishi va aylanish o‘qi bo‘ylab siljishi davomida chigit valigida har-xil darajada tukdor bo‘lgan

chigitlarning aralashishi ta'minlanishi aniqlandi. Linterning chigit bo'yicha unumdorligiga bog'liq bo'lgan holda chigit valigining chuqurligi bo'ylab uning tuzilmasini o'rganishga harakat qilindi. Aniqlandiki, bir xil zichlikka ega bo'lmagan chigitlarning tukdorligi 10-12% gacha bo'lganda linterlash jarayonining unumdorligining 20-30% oshishiga imkon beradi. SHu bilan birga chigitlardan lintni qirib olish jadalligi arra tishlari yon qirralarining chigitlar yuzasiga ta'sir darajasiga bog'liqligi va buning uchun chigitlar massasini samarali aralashtirish zarurligi to'g'risidagi taxmin ilgari surildi.



5-rasm. Uzuq-uzuq parrakli to'zitqich.


1- ishchi kamera; 2- uzuq-uzuq parrakli to'zitqich; 3- arralissilindr

B.YA.Kushakeevning ishida[9] chigit massasining ishchi kameradagi to‘zitqich atrofida va harakat o‘qi bo‘ylab siljishini ta’minlaydigan to‘zitqich ko‘rib chiqilgan (6-rasm). Bu val va unda o‘rnatilgan vtulka va parraklardan tashkil topgan bo‘lib, ularga bo‘ylama plankalar, vtulka va parraklar orasida esa qiya diskli qo‘shimcha vtulkalar o‘rnatilgan. Eksperimental tadqiqotlar davomida disklar qiyaligining val o‘qiga nisbatan hosil qilgan va $65-75^0$ oralig‘ida o‘zgaruvchi burchagining linterlash parametrlariga ta’siri o‘rganildi. Bu holda valda o‘rnatilgan dislar oralig‘i 100-140 mm bo‘lib diskning to‘lqinsimon yuzasidagi balandliklar 3-7 mm tashkil etadi (7-rasm). Bundan tashqari arralissilindrga nisbatan to‘zitqichning turli holati hamda arralarning ishchi yoyi uzunligi va chigitli valiklarning chigitli taroq va kolosnikli panjara orasidagi tirqishlar o‘zgarmas bo‘lgan holatda o‘zaro ta’siri o‘rganildi.

To‘zitqich o‘rnatilgan modernizatsiyalashtirilgan linter tegishli tartibda 1 va 2 navlar bo‘yicha o‘rganilganda linterning chigitlar bo‘yicha ish unumdorligi 20.3-23.8% ga (nisb), momiq bo‘yicha 7.2-10.1% gacha (nisb)ga oshdi va shu bilan birga linterlangan chigitlarning shikastlanishi 0.4-0.7% (nisb) hamda iflos aralashmalarning massa ulushi va momiqdagi butun chigitlar 0.5-0.3% (nisb) ga kamaydi.


Qayd etilgan uskunaning joriy etilishi hisobiga lint ishlab chiqarish samaradorligining ma’lum darajada oshganligiga qaramay, linterlarning foydaliligi va ularning rentabellik darajasi to‘g‘risidagi masala hamon o‘tkirligicha qolmoqda.

5LP linter dastgoxi ishchi kamerasida xozirda ishlab turgan parrakli to‘zitqich bilan B.Ya.Kushakevning takomillashtirilgan parrakli to‘zitqichga ega bo‘lgan ishchi kameralarni S-6524 seleksiyali I- nav 2-sinf texnik chigitda o‘tkazilgan taqqoslash sinov ko‘rsatkichlari 3-jadvalda keltirilgan.



6-rasm. B.YA.Kushakeev taklif qilgan to‘zitqich.

1- val; 2- flanets; 3-parrak; 4-to‘lqinsimon disk



7-rasm. To‘zitqichning umumiy ko‘rinishi

1- ishchi kamera; 2- to‘zitqich; 3- chigit tarog‘i;
4-kolosnikli panjara; 5- arrali silindr.

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, tavsiya etilgan yangi konstruksiyadagi to‘zitqichning afzalligi yaqqol namoyon bo‘ladi, jumladan linterlangan chigitning, olingan momiqning tasniflari, mashinaning ish unumdorligi ko‘rsatkichlari yaxshilangan.

Linterlash jarayonini uning ishchi kamerasi va elementlarini takomillashtirish sohasida amalga oshirilgan tadqiqotlarning majmuaviy tahlili quyidagi xulosalarni keltirishga imkon beradi:

- avvalgi rusumlardagi linterlarning unumdorligini oshirish, ularda o‘rnatilgan quvvatni oshirish orqali amalga oshirilib kelingan.

- ishchi kamera va to‘zitqich diametrining oshirilishida unumdorlik oshishi tendensiyasi kuzatiladi va bu chigit valigining aylanish chastotasi va arralissilindrning faol yuzasi oshishi bilan bog‘liq

To‘zitqich yuqorida qayd etilgan omillarga faol ta’sir ko‘rsatadi, biroq, hozirgacha linterlash jarayonini jadallashtirishga imkon beradigan muqobil konstruksiyasi ishlab chiqilmagan.

Mamlakatimiz tadqiqotchilari tomonidan linterning o‘tkazish qobiliyati va lint ajratib olinishini oshirish usullari taklif etilgan edi. Bizning fikrimizcha chigitlar yuzasidan momiqni qirib olishning samarali jarayonini to‘zitqich zonasida arra tishlari tomonidan va ishchi kameradan chigitlarning bimalol ajratilishini ta’minlovchi usuldir. Nazariy jihatdan chigitni momiqdan ajratib olish jarayoni yuz berayotgan qismida ishchi organlarning o‘zaro ta’siri arraning chigit valigiga kirib turuvchi yoyi bilan chegaralanadi.

Ushbu usullarning qo‘llanilishi yuqorida qayd etilgan jarayonlarning samarali o‘tishiga qulayroq imkoniyat yaratadi.

Bularning barchasi linterlash texnikasi va texnologiyasining takomillashtirish masalalarining tamoyilli yangi yo‘nalishlar qo‘llanilishi zarurligini ko‘rsatadi.

**Ishlab turgan va tavsiya etilayotgan to‘zitqichlarning solishtirma tajribalari
natijalari**

t/ r	Ko‘rsatgichlar	5LP linterining to‘zitqichi	
		oddiy parrak-li (hozirda ishlab turgan)to‘zit- qich	B.YA. Kushakee v taklif qilgan to‘zitqich
1	Linter dastgoxidan keyin chigit: - umumiy tukdorligi, % - mexanik shikastlanganligi, %	8,0 4,6	7,7 4,2
2	Linter dastgohidan keyin momiq: - momiqdagi iflos aralashmalar va butun chigitning ulushi, % momiqning shtapel uzunligi, mm	5,0 6/7	4,5 6/7
3	Linter dastgohining ish unumdorligi, kg/mash.soat: - chigit bo‘yicha - momiq bo‘yicha	805 37,4	1018 40,7

Yuqorida qayd etilganlarga ko‘ra ushbu ishlanmalar linter ishchi kamerasi uchun yangi konstruksiyadagi chigit valigining jadal aralashib turishini va bir vaqtning o‘zida chigitlar qatlaminig ilgarilanma qaytma harakatini, ayniqsa arralissilindrning arratishlarining old yon va uchi bilan o‘zaro ta’sirini ta’minlaydigan to‘zitqichni ishlab chiqish ko‘zda tutilgan. Ushbu to‘zitqich chigitlarni linterlash jarayonining samaradorligini va mashina ishining mustahkamligini, kapital va eksplutatsion xarajatlarining qisqartirilishini ta’minlaydi.

Amalga oshirilgan nazariy tadqiqotlarning tahlili shuni ko‘rsatdiki, shu paytgacha asosan paxta chigitlarini linterlash jarayonining umumiy sxemasini tuzishga imkon

bermaydigan va qayta ishlanayotgan chigitli tuzilmaga ega muhit ekanligining alohida tomonlari hisobga olinmasdan faqatgina jarayonning ba'zi elementlarigina o'rganilgan edi.

Paxta chigitlarini linterlash jarayonini yaxshilash bugungi kunda paxta tozalash korxonalarining echilishi lozim bo'lgan asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Zamonaviy linter dastgohining linterlash jarayoniga ta'sir etuvchi asosiy ishchi qismlaridan biri to'zitqich hisoblanadi. Uning xolati va arralissilindrga nisbatan ishchi kamerada joylashish o'rnidan chigitli valikning dastgoh uzunligi bo'ylab bir tekis aylanishi, chigitlarni to'zitqich parraklari bilan arralissilindr oralig'ida ma'lum bosim va tezlikda xarakatlanishga olib keladi.

Ishlab chiqarishda ishlayotgan linter dastgohlarining to'zitqichlarini ishlash xolati, linterlash jarayoniga ta'siri va oldingi bu yo'nalishda olib borilgan ilmiy-tadqiqot ishlari bo'yicha qilingan analitik tahlillar, to'zitqichdagi parraklar soni 4 ta bo'lganda to'zitqich samaradorligi yaxshilanib, linterlash jarayoniga ijobiy ta'sir etishini ko'rsatdi. SHu bilan birga to'zitqich parraklari metaldan tayyorlanganligi va ularning chiziqli tezlagi 4,2 m/sek bo'lganligi uchun parraklar bilan arralissilindr oralig'idan o'tayotgan chigitlardan momiqni qirib olish jarayonida chigitlarni mexanik shikastlanishi kuzatildi.

To'zitqich linter dastgohining asosiy ishchi qismi bo'lib, ishchi kamerada chigitlarni aylanma xarakatga keltirib, chigitli valik xosil qiladi va shu bilan birga chigitli valikka kerakli zichlikni berib, linterlash jarayonini samarali kechishiga sharoit yaratadi.

1.3.Xorijiy linterlash jarayoni texnika va texnologiyalari

So‘ngi yillarda chet el tajribasini amalda sinagan xolda MR-144D rusumli Xitoy linterlash mashinalari o‘rnatilmoqda. Jumladan 2009-yil “Bektemir chigitni linterlash” korxonasiga MR-144D rusumli linterlardan 18 tasi o‘rnatildi. Chet el linterlarini o‘rganish davomida konstruksiyasida o‘xshashliklar aniqlandi. Farqli tomoni esa ishchi kamera ko‘ndalang kesim yuzasining kichikligi, to‘zitqich parraklari sonining ko‘pligidir. Kolosnikning tuzilish profili o‘zgacha. Valdagi arralar soni 144 ta. Arralar orasidagi qistirmaning eni kattaligi xisobiga arralar soni kam. To‘zitqichning diametri 150 mm ga teng. Bu kabi linter dastgohining texnik ko‘rsatkichlari 4-jadvalda keltirilgan. Ishlash tamoyili o‘xshash (8-rasm).

9- rasmda MR-144D linterlash mashinasini sxemasi, 10-rasmda esa uni ishlab chiqarishdagi holati keltirilgan.

4-jadval


MR-144D rusumli Xitoy linter uskunasi texnik ko‘rsatkichlari

Mashina	Arralissilindr diametri, mm	To‘zitqich diametri, mm	Linterning ish unumdorligi, kg/mash.s.	
			chigit bo‘yicha	momiq bo‘yicha
MR-144D	315	150	550	22

Aslida MR-144D rusumli linter mashinasining ish unumdorligi 1200-1500 kg/soat. ga teng. Bugungi kunda bu linter dastgohlari to‘liq quvvatda ishlay olmayapti. Mutahassislar shu muammoni bartaraf etish maqsadida ishlar olib borishmoqda.



8-rasm. MR144D linterining ishchi kamerasi
1- to‘zitqich; 3- kolosnik panjara



9-rasm. MR-144D rusumli linterlash mashinasining sxemasi.

1- ta'minlash tizimi; 2- latok; 3- magnit; 4- ishchi kamera; 5-to'zitqich; 6 –fartuk; 7- chigit tarog'i; 8- arralissilindr; 9- kolosnik panjara; 10 –ulyuk kozerogi; 11- chigit uchun shnek; 12- ulyuk uchun shnek; 13- cho'tkali baraban; 14- lintni olib ketuvchi kanal.



10-rasm. MR-144D rusumli linterlash mashinasining ishlab chiqarishdagi xolati.

TEKNOLOGIK KISMI

